



Islom KARIMOV

**TARIXIY XOTIRA
VA INSON OMILI – BUYUK
KELAJAGIMIZNING
GARVIDIR**

«O'ZBEKISTON»



Islom KARIMOV

**TARIXIY XOTIRA
VA INSON OMILI — BUYUK
KELAJAGIMIZNING
GARVIDIR**

157 0971

TDTU ASOSIY
ARM (KUTUBXONA)

TOSHKENT
«O‘ZBEKISTON»
2012

УДК: 323(575.1)+ 94(575.1)

ББК: 66.3(50') + 66.3(50')

К 23

ISBN 978-9943-01-817-4

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2012

Ushbu risoladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yil 9-may kuni Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari uchun bergan intervyusining matni o'rin olgan.

Davlatimiz rahbarining bu chiqishi, uning barcha nutq va ma'ruzalari singari, o'zining dolzarbligi, keng qamrovi, teran mantiqiy asosi, amaliy xulosa va takliflari bilan jamoatchiligimiz o'rtasida katta qiziqish uyg'otdi.

*Mazkur risolaning «**Tarixiy xotira va inson omili — buyuk kelajagimizning garovidir**» deb nomlanishida o'ziga xos chuqur ma'no bor.*

***Tarixiy xotira** — bu nafaqat Ikkinchi jahon urushida qurbon bo'lgan ota-bobolarimizni eslash, balki bugungi tinch va osoyishta hayot, musaffo osmon uchun jon fido*

qilgan barcha insonlarni yod etish, bizning kim ekanimiz, qanday buyuk zotlarning avlodi, qanday bebaho merosning vorislari ekanimizni hech qachon unutmaslikka, ana shunday o'lmaz qadriyatlar, ezgu g'oyalar uchun kurashib yashashga chorlaydigan davratkor kuchdir.

Inson omili — bashariyat tarixida, jumladan, Vatanimiz tarixida barcha moddiy va madaniy boyliklarning bunyodkori, taraqqiyotning yetakchi kuchi bo'lgan ongli inson, xalqimizning fidokorona mehnati, uning beqiyos yaratuvchilik salohiyati demakdir.

Bugungi kunda biz o'z oldimizga qo'ygan, ne-ne ajdodlarimiz asrlar davomida orzu qilib o'tgan ulug' maqsadlarga yetish, yurtimizda buyuk davlat, ozod, erkin va farovon hayot qurish, eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish, biz uchun mustahkam suyanch va tayanch bo'ladigan barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish yo'lida inson omilining o'rni va ta'siri hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Bugun mamlakatimizda buyuk bir tarixiy sana, ya'ni Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan G'alabaning 67 yilligi nishonlanmoqda. Ayni shu damlarda xalqimiz, avvalambor, mana shu urushda qatnashib, Vatan uchun, yurt uchun jon bergan insonlarni eslab, ularning xotirasi oldida bosh egib ta'zim qilmoqda. Bu urushda haqiqiy qahramonlik, mardlik va jasorat namunasini ko'rsatgan, bugungi kunda oramizda sog'-omon, bardam va tetik bo'lib yurgan yurtdoshlarimizni qadrlab, ularga hurmat-ehtirom bajo keltirmoqda.

Mana shu fursatdan foydalanib, urush qatnashchilarini, faxriylarimizni, bizga ma'naviy madad va ibrat bo'lib, safimizda yurgan otalarimiz, akalarimizni tabriklab,

ularga chin qalbimdan o'zimning samimiy hurmatimni bildirishdan g'oyat mamnunman.

Bugun buyuk G'alabani bayram qilar ekanmiz, uning insoniyat, jumladan, bizning xalqimiz uchun g'oyat qimmatga tushganini ham unutmasligimiz zarur, deb o'ylayman. Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, mana shu mudhish urushda O'zbekistondan bir yarim million kishi qatnashgan. Agarki shundan 500 mingga yaqin inson jang maydonlaridan qaytmaganini inobatga oladigan bo'lsak, bir xulosaga kelishimiz mumkin: bu beshafqat urush yurtimizdagi bironta oila, bironta xonadonni chetlab o'tgani yo'q.

Bugun hammamiz bu raqamlarga yana e'tibor berib, ular naqadar chuqur qayg'uning asosi, zamini ekanini anglab, xalqimiz qanday qonli urushda qatnashgani va G'alaba uchun munosib hissa qo'shganini yana va yana bir bor xayolimizdan o'tkazishimiz, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi.

Oradan yillar o'tadi, zamonlar o'tadi. Lekin mana shu urushning asoratlari, avvalambor, el-yurtimiz ko'ksidagi ayriliq yarasi hech qachon bitmaydi, unutilmaydi. O'zbekistonimiz, ona yurtimiz uchun, shu zaminda yashayotgan insonlarning tinch-omon yashashi uchun haqiqatan ham qancha-qancha yurtdoshlarimiz o'zining yosh jonini bergani, qo'liga qurol olib, jasorat va qahramonlik ko'rsatgani, ularning aziz nomlari xalqimiz, avlodlarimiz xotirasida abadiy saqlanadi.

El-yurtimiz mard va botir o'g'lonlari-ning xotirasini qalbida, yuragida asrab, minnatdorlik bilan yod etib, Yaratganimizdan ularning oxirati obod bo'lishini so'raydi. Chunki xalqimiz, millatimiz hayotida o'tganlarni eslash, ularning tarix va kelajak oldidagi xizmatlari, bugungi hayot uchun singgan mehnatlarini hech qachon unutmaslik, mana shunday odat va xislatlar biz uchun muqaddas qadriyatga aylanib, qon-qonimiz, suyak-suyagimizga singib ketganini hech kim inkor eta olmaydi.

Balki, ayni mana shunday qadriyat, mana shunday odat xalqimizni boshqalardan ajratib turadigan noyob bir xususiyat, fazilat desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Haqiqatan ham, jahon tarixidagi eng qonli, eng dahshatli qirg'in bo'lgan Ikkinchi jahon urushi Sovet Ittifoqida — jumladan, O'zbekiston ham o'sha paytda ana shu davlat tarkibida bo'lgan — yashagan 27 million odamning hayotiga zomin bo'lgan. Bu raqamda turli millat va elatga, din va e'tiqodga mansub qancha-qancha insonlarning guldek umri, ularning dog'ida kuyib o'tgan mushtipar onalar, suyukli yorlar, qadrdon insonlarning cheksiz g'am-g'usasi mujassam ekani, bularning barchasini so'z bilan ifoda etishga inson zoti o'zi ojizligini inobatga oladigan bo'lsak, bu naqadar bir mudhish, ongli odamning xayoliga aslo sig'maydigan fojia ekani ayon bo'ladi.

Takror va takror aytishga to'g'ri keladi — ana shu 27 million odamning orasida O'zbekistondan safarbar qilingan xalqimiz

vakillari ham bor edi. Shuning uchun bu urushning hech qachon qaytarilmasligi, hech qachon takrorlanmasligini bizning xalqimiz hammadan ham ko'proq istaydi. Umuman, ezgu niyat bilan yashayotgan har qaysi odam, u qayerda, dunyoning qaysi chekkasida bo'lmasin, albatta shu haqda bosh qotiradi, shu haqda qayg'uradi, shu haqda qandaydir rejalarni tuzadi, bunday dahshatli qirg'in qaytarilmasligi uchun harakat qilishga, kurashishga intiladi.

Albatta, bugun erkin, ozod yashayotgan avlod «Endi urush bo'lmaydi» degan ezgu niyat, qat'iy ishonch bilan hayot kechirmoqda. Men bundan keyin dunyoga keladigan avlodlar ham mana shunday, hech qachon urush bo'lmaydi, faqat tinchlik-xotirjamlik, farovonlik bo'ladi, degan ishonch bilan yashashini istardim. Menimcha, buni butun insoniyat, yer yuzidagi barcha sog'lom kishilar istaydi. Axir, dunyodagi dinlarning hammasi odamzotni yagona oliy maqsadga, ya'ni jahonda o'zaro

do'stlik, hamjihatlik qaror topishi, insonlar bir-biriga yordam va ko'mak berib yashashi uchun, bir so'z bilan aytganda, baxt-saodatning asosiy sharti va garovi bo'lgan tinchlik va ezgulikni asrab-avaylashga da'vat etmaydimi?

Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, mana, urush tugaganiga 67 yil bo'lyapti. Lekin, ming afsuski, dunyodagi ayrim kuchlarning hali-beri tarixdan zarur xulosa va saboq chiqarib olmagan ma'lum bo'lmoqda. Biz bu g'alabani fashizm ustidan qozongan g'alabamiz, deb eslaymiz, bunda xalqimizning munosib hissasi borligidan xursand bo'lamiz, qalbimiz g'urur-iftixorga to'ladi. Bu mudhish baloni ostonamizga qo'ymagan jasur ota-bobolarimiz oldida ta'zim qilamiz, ularning qahramonligini hech qachon unutmaymiz, deb o'zimizga qasamyod qilamiz.

Ming afsuski, kishilik tarixida mana shunday vahshiylik, mana shunday urushni yana va yana tashkil qilishga bo'lgan urinishlar to'xtagani yo'q. Agar dunyoga,

uzoq-yaqin hududlarga qaraydigan bo'lsak, qancha-qancha to'qnashuvlar, qancha-qancha tortishuvlar, qancha-qancha qurolli harakatlar, kerak bo'lsa, ofatlar, qon to'kishlar hanuz davom etayotganini ko'ramiz. Mana, yonimizdagi Afg'onistonni oladigan bo'lsak, hozir bu mamlakat hududida yangi bir strategiyani, yangi harakatlarni amalga oshirish bo'yicha tayyorgarlik ko'rilyapti. Yaqinda AQSHning Chikago shahrida NATO harbiy blokining sammiti bo'lishi kutilmoqda. Bu yig'ilishda ham Afg'oniston masalasi muhokama qilinadi. Chuqurroq qaraydigan, tahlil qiladigan bo'lsak, Afg'onistonda 30 yildan ko'proq vaqtdan buyon davom etayotgan urushning oxiri, yakuni haligacha ko'rinmayapti.

Afg'onistonda shunday qonli urush davom etayotgan, turli kuchlar, guruhlar o'rtasida yarashish, murosaga kelish masalasi mutlaqo ko'rilmayotgan ekan, bu O'zbekiston uchun, xalqimiz uchun, umuman, O'rta Osiyoda yashayotgan odamlar uchun juda katta tahdid, juda katta xavf-

xatar, desak, hech qanday xato bo'lmaydi. O'ttiz yildan ortiq davom etgan urush yetadi, endi yarashish masalasi qandaydir kun tartibiga qo'yilishi kerak. Oddiy odamlarning qalbidagi, yuragidagi maqsad ham shu.

E'tibor bersangiz, taassufki, mana shunday achchiq tarix ham odamzotni to'g'ri xulosa chiqarib yashashga o'rgatayotgani yo'q. Bularning barchasi ongli, sog'lom fikrlaydigan, tinchlikni xohlaydigan odamni, o'z bolalarining ertangi kunini o'ylaydigan odamni albatta tashvishga soladi. Xalqimizning «Qo'shning tinch — sen tinch» degan maqoli bejiz aytilmagan. Buning ma'no-mazmuni juda chuqur. Shuning uchun agarki Afg'onistonda mana shunday urush, qonli qarama-qarshilik davom etayotgan bo'lsa, ertaga bu xavf-xatar bizga nima olib kelishi mumkin, deb doimo — har kuni, kecha-yu kunduz shu haqda bosh qotirishimiz, sezgir va ogoh bo'lib, bunday xavf-xatarlarning oldini olish uchun biz qanday chora-tadbirlarni oldindan ko'ri-

shimiz kerak, deb yashashimizni bugun vaziyatning o'zi talab qilmoqda.

Takror va takror aytaman, sezgir, sergak bo'lib yashashni bugun zamonning o'zi talab qilmoqda.

Yana bir xavf haqida gapiradigan bo'lsak, ming afsuski, bu masalada ham, hozircha kamdan kam odam tarixdan to'g'ri xulosa chiqaryapti. Kerak bo'lsa, o'zini, aqlini yo'qotgan ba'zi bir dohiylarni tarix hech narsaga o'rgatmayapti. Aytmoqchimanki, hozirgi kunda millatchilik degan balo ham bosh ko'tarmoqda. Bu nima degani o'zi? Kishilik tarixi uning og'ir oqibatlarini, nimalarga olib kelishi mumkinligini ko'p ko'rgan. Aslida fashizm balosining paydo bo'lishiga ham aynan millatchilik asosiy sabab bo'lgan. Bu haqda dunyodagi ko'plab faylasuflar, olimlar yozmoqda. Lekin bu masalaning keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan fojiali oqibati har tomonlama chuqur ko'rsatib berilmayapti. Holbuki, bunday tahdidlarni o'z vaqtida sezish, ularning yovuz basharasini

ochib tashlash hozirgi kunda eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Bugun biz mana shunday musaffo osmon ostida yashayotgan ekanmiz, bunday muammo kimga, nimaga kerak o'zi? Millatchilikni bayroq qilib ko'tarayotganlarga nima kerak? Ular qanday yashashni istaydi? Odamlarning bir-birini ko'rolmasligi, bir-biridan qandaydir ustunligini ko'rsatishi nima uchun kerak? Millatchilikni qo'zg'ayotgan bu kuchlarning alohida tarixi bor emish, aytishga til ham bormaydigan tomoni shundaki, xuddiki ularning tomirida boshqacha qon aylanar emish. Menimcha, bunday gaplarni aqli raso odam hech qabul qila olmaydi.

Baraka topkur, biz bugun XXI asrda yashayapmiz. Millatchilik degan balo o'rta asrlarda qolmadimi? Nima uchun biz buning qandaydir ta'sirini yon-atrofimizda hozirga qadar sezyapmiz? Bittasi tarixni boshqatdan ko'rib chiqishni, boshqatdan yozib berishni istaydi. Shu maqsadda kitoblar chiqaryapti, qandaydir institut-

larni, idoralarni tashkil qilyapti. Ya'ni, o'z millatini alohida millat deb ajratib ko'rsatyapti. Go'yo bu millatning u bilan yonma-yon yashayotgan boshqa millatlardan qandaydir ustun jihati, noyob xususiyati bor emish.

Agarki biz bunday illat, bunday baloga o'z vaqtida baho bermasak, uning oqibati ancha xavfli bo'lishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, fashizm degan balo, misol uchun, agar eslasak, qanday paydo bo'lgan edi? Odamning tabiati shundayki, unga tarixni, tarix haqiqatini tez-tez eslatib turmasa, ko'p narsani unutib, esdan chiqaradi. Ma'lumki, Gitler Germaniyada 1933-yili hokimiyat tepasiga kansler, ya'ni hukumat raisi bo'lib kelgan. Hozirgi vaqtda ba'zi joylarda Gitler davlat tepasiga demokratik yo'l bilan kelgan, degan da'volar, bayonotlar hali-beri chiqyapti. Bunday gaplarni eshitganda, men o'zimga o'zim savol beraman: agarki fashizmni hukumat tepasiga olib keladigan bo'lsa, buni

demokratik yo'l, deb aytishga o'zi qanday til boradi va bu qanday aqlga sig'adi?

Tarixga nisbatan bunday soxta, yuzaki yondashuv va talqinlar siz jurnalistlar, olimlar va siyosatshunoslar oldiga juda ko'p masalalarni dolzarb qilib qo'ymoqda. O'ylaymanki, qayerda bo'lmasin, inson hayoti, uning kelajagi, ongi va ma'naviyatiga qarshi qaratilgan mana shunday xavf-xatarlar paydo bo'lsa, ularni bartaraf etishda hech kim chetda turmasligi kerak. Bu balo bizdan olisda, dunyoning bir chetida bo'lyapti, uning bizga hech qanday daxli yo'q, deb yashash, shunday kayfiyat bilan, shunday fikr bilan beparvo bo'lib yurish va o'zi uchun qandaydir ko'rinmas chegara qo'yib, bunday xatarlardan o'zini xoli deb bilish, o'ylaymanki, hech qachon yaxshi oqibatga olib kelmaydi.

Bu dunyoda hamma narsaga daxldorlik tuyg'usi bilan yashash, qo'shnining, yor-u do'stning dardini o'ziga yaqin olish, ularga o'z vaqtida yelkadosh bo'lish, har qanday baloning u bosh ko'tarmasdan turib oldini

olish, uni tag-tomiri bilan yo‘q qilish, o‘ylaymanki, insonga yarashadigan fazilat bo‘ladi.

Bugun zamonning o‘zi barchamizni mana shunday xavf-xatarlardan ogoh etib, bong urmoqda. Ey odamzot, ko‘zingni och! Ey odamzot, atrofga qara! Kechagi tarixga qara! Xulosa chiqar! Saboq chiqar! Yuzaga chiqayotgan xavf-xatarlarga qarshi zarur choralarni ko‘rish, kerak bo‘lsa, barcha imkoniyatlarimizni ularga qarshi ishlatish, safarbar etish, turli mamlakat va millatlarning qarama-qarshilikka emas, bir-biri bilan til topishishga intilib, ustimizga yopirilib kelayotgan balolarni tomiri bilan yo‘q qilishi yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘l bo‘ladi.

Qani endi, shu masalani bizning matbuotimiz, ilmiy, ijodiy ziyolilarimiz chuqur anglab, muhokama qilsa. Bu borada tarixdan qandaydir parallellarni, o‘zaro o‘xshash va yaqin voqea-hodisalarni topib, aniq xulosalar chiqarish, xalqimiz, avvalo unib-o‘sib kelayotgan, katta umid bilan o‘z

hayotini o‘z kuchi bilan barpo etishga intilayotgan yoshlarimiz uchun ayni muddao bo‘lar edi.

Tarixiy parallel degani, tarixiy xotira degani nima, deb so‘rasa, bir vaqtlar shu masala bo‘yicha matbuotda ham, mening ba‘zi chiqishlarimda ham ko‘pgina fikrlar bayon qilingan edi. Tarixiy xotira, qisqacha aytganda, bu — hayot mazmunini, avlodlar o‘rtasidagi vorislik tuyg‘usini anglash demakdir. Takror aytaman, hayotning ma’nosini chuqur anglash, kerak bo‘lsa, ajdod va avlodlarning bir-biriga daxldorligi, bir-biriga ma’naviy zamin tug‘dirib berishini tushunish tarixiy xotiraning asosini tashkil etadi.

Aslida, hayot uzviy va ketma-ket voqealar zanjiridan iborat. Shu ma’noda, hayot — bu bir-biri bilan chambarchas bog‘lanib ketayotgan halqalar tizimi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Xalqimiz umr — bu oqar daryo, deb bejiz aytmaydi. Ya’ni, hayotda hamma narsa doimiy harakatda va o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Tarixiy xotira ana shu

voqea-hodisalarning eng muhim qirralarini yaxlit holda o'ziga qamrab oladi, insonni befarqlik va beg'amlik tuyg'usidan uyg'otadi, uning g'aflat botqog'iga botib qolishiga yo'l qo'ymaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, hayotni anglash degani — kechagi tarixdan, o'tmishda sodir bo'lgan voqea-hodisalar-dan to'g'ri xulosa chiqarib, ta'bir joiz bo'lsa, uni bugungi va ertangi kun uchun qo'llanma sifatida ishlata olish demakdir.

Hozirgi kunda unib-o'sib kelayotgan, ertaga o'rnimizni oladigan yoshlarimizni o'z ota-bobolari xotirasiga hurmat-ehtirom ruhida tarbiyalash, o'ylaymanki, bizning nafaqat vazifamiz, avvalambor, insoniy burchimizdir.

Bugun, Ikkinchi jahon urushida g'alaba qozonganimizga 67 yil to'lgan ayyomda mana shunday masalalar haqida so'z yuritish, albatta o'rinlidir.

Bu haqda gapirganda, yana bir fikrga to'xtalib o'tishni zarur, deb bilaman. Ya'ni, hozirgina biz tilga olgan xavf-xatarlar, balo-

qazolarga qarshi kurashish, tegishli chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirishda alohida ahamiyat berishimiz kerak bo'lgan yana bir masalani hech qachon chetlab o'tib bo'lmaydi.

Men bu o'rinda inson omili haqida so'z yuritmoqchiman.

Avvalo, inson omili o'zi nima, deb so'rasa, men kishilik tarixida, jumladan, Vatanimiz tarixida barcha moddiy, madaniy boyliklarning bunyodkori, taraqqiyotning yetakchi kuchi sifatida namoyon bo'ladigan insonning, xalqimizning kuch-qudrati, aql-zakovati, bilim va tajribasi, salohiyatiga alohida e'tibor qaratgan bo'larдим. Haqiqatan ham, tarixda xalqning, Vataning istiqboli, iqboli qanday bo'lishi haqida chuqur o'ylab, bu masalaning turli tomonlarini o'ziga tasavvur qilib, to'g'ri qaror qabul qilishda, avvalambor, inson hal qiluvchi kuch bo'lgan.

Bu fikrning zamirida juda chuqur ma'no bor. Bir vaqtlar, mustabid sovet davrida maktablarda bizning ongimizga «Bu dunyoni do-

hiylar boshqaradi», «Dohiylar yo‘lboshchilik qiladi va ularning juda aqlli, uzoqni ko‘zlagan siyosati odamzotni har qanday baloqazolardan asraydi, millionlarning taqdirini o‘z qo‘liga olib, ularni albatta porloq kelajakka adashtirmasdan olib boradi» degan fikrlar tinimsiz singdirilar edi.

Mana, sovet davrining tugaganiga ham 21 yil bo‘lyapti. Bizning yon-atrofimizdagi ba’zi davlatlarda mana shu fikrlarning amaldagi noxush ko‘rinishi, namunalari, afsuski, hali-beri ko‘zga tashlanyapti. Ularni ko‘rmoqchi bo‘lgan odam ko‘ryapti.

«Dohiy» degan, «millatboshi» degan yoki shunga o‘xshash boshqa iboralar aytilyaptiki, bularning barchasi odamni o‘tmish saboqlari haqida, xohlaydimi-yo‘qmi, o‘ylashga majbur etadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yana bir bor aytaman, bunday nomaqbul holatlardan biz albatta to‘g‘ri saboq chiqarib, bunday ko‘rinishlarning hayotda nafaqat foydasi bo‘lmasligi, aksincha, juda katta ziyoni borligini yoshlarimizga tushun-

tirishimiz va bunga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak.

Men xalqimizga, avvalambor yoshlarimizga murojaat qilmoqchiman. Nega deganda, kelajak — yoshlarniki. Biz ertangi kunni kim uchun quryapmiz — yoshlarimiz uchun quryapmiz. Lekin ertangi kunimizning milliy tabiatimizga, hayotning yurishi, hayotning borishi bizning maqsad-muddaolarimizga mos bo‘lishi uchun, o‘z oldimizga qo‘ygan marralarga erishishimiz uchun birinchi navbatda mas’uliyatni kim zimmasiga olishi kerak? Albatta, yoshlar olishi kerak!

Shu ma’noda aytadigan bo‘lsak, tarixni dohiylar yaratmaydi, tarixni xalq yaratadi, bunyodkor inson yaratadi. Bu fikr quruq shiorga aylanmasdan, amaliy bir dasturga, faoliyatimiz mezoniga aylansa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Har qaysi odam tarixni, ayniqsa, o‘z yurti tarixini yaxshi bilishi kerak. Bu tarixdan chiqadigan saboq va xulosalarni ham o‘ziga to‘g‘ri tasavvur qilishi kerak.

Menga buyursa, mamlakatimizning barcha o'quv yurtlarida shu masalalarni maxsus dars soatlari orqali bolalarimizga, mening farzandlarimga atroflicha yetkazgan bo'lardim. Agarki xalq bo'lmasa, xalq qo'llab-quvvatlamasa, uning xohish-irodasi, orzu-intilishlarini ifoda etmasa, dohiyning o'zi hech narsa qilolmaydi. Agarki o'zining amaliy ishlari bilan xalqning ishonchini qozona olmasa, har qanday dohiyning ham qo'lidan bir ish kelmaydi.

Beixtiyor savol tug'iladi: nima uchun o'zini dohiy sanab, shunga mast bo'lib yurgan odamlarning xayoliga, mensiz ham bu xalq bor edi, mendan keyin ham bo'ladi, degan fikr kelmaydi? Rahbarlar kelib ketaveradi, Vatan va xalq abadiy qoladi. Men bu so'zlarni ilgari ham aytganman.

Men bo'lmasam, bu xalq hech qachon baxtli bo'lmaydi, degan fikrga borish, o'zini xalqdan ham yuqori qo'yish — bunday manmanlik qanday yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligini o'zini dohiy deb

hisoblaydigan odamlar o'ylaydimi, yo'q-mi?

Shuning uchun ham men bugun insonning tarixdagi roli va o'rni haqida alohida to'xtalayapman. Bu haqda gapirganda, men takror aytaman, mana shu o'zimizning tariximizni, O'zbekistonda mustaqillik davrida biz qurayotgan jamiyat, butun dunyo tan olayotgan, hatto qoyil qolayotgan ishlarimizni inobatga oladigan bo'lsak, bugungi kunda xalqimiz biz erishgan barcha yutuqlarning ijodkori va bunyodkori ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Mana, yaqinda mamlakatimizda, azim poytaxtimiz Toshkent shahrida O'zbekistonning onalik va bolalikni himoya qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish bo'yicha erishgan yutuqlari, amaliy tajribalarini o'rganishga bag'ishlangan ikkita xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Bu nufuzli anjumanlarda BMT, YuNESKO, YuNISEF, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki singari yirik xalqaro tuzilmalarning rah-

barlari va namoyandalari, qariyb 50 ta mamlakat, jumladan, eng taraqqiy topgan davlatlardan ko'zga ko'ringan olim va mutaxassislar qatnashib, bizning shu sohalardagi tajribalarimizni o'rgandi va yana bir bor yuksak baholadi.

Ma'lumki, hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi mezonlari aholi salomatligi bilan, ta'lim-tarbiya tizimining saviyasi bilan belgilangan. Ana shu sohalarda mamlakatimiz dunyoda yetakchi o'rinlarga chiqayotgan bir paytda bu yutuqlarga O'zbekiston nimaning hisobidan erishyapti, degan savol atrofida albatta ko'pgina izlanish va tadqiqotlar olib borilyapti, yangi-yangi fikrlar bildirilyapti.

Bu ham o'rinli. Jahonning qaysi mintaqasida bo'lmasin, biron-bir yangilik, o'zgarish bo'lsa, har qaysi siyosatchi, tahlilchi yoki tadqiqotchi albatta o'z munosabatini bildirib, o'z xulosasini chiqaradi. Lekin mendan bugungi kunda O'zbekiston erishayotgan yutuqlarning asosiy mezonlari

nimada, deb so'rasa, men avvalo inson omilida, deb aytgan bo'lardim. Jamiyatimiz o'zgaryapti, hayotimiz o'zgaryapti. Eng muhimi, odamlarimizning dunyoqarashi, ma'naviyati, o'z ishiga, kasbiga munosabati keskin va tubdan o'zgaryapti.

Bugungi yurtdoshlarimizning ongi 90-yillardagi odamlarning dunyoqarashidan yer bilan osmoncha farq qiladi. Buni ba'zan o'zimiz ham sezmay qolyapmiz. Go'yo bularning barchasi avvaldan shunday bo'lib kelgan, deb o'zimizga tasavvur qilyapmiz.

Mana shu Xotira maydonini yoki Vatanimizning bosh maydoni bo'lmish Mustaqillik maydonini oling, Amir Temur haykali va xiyoboni atrofidagi obodonchilik ishlarini, qurilgan muhtasham binolarni ko'ring. Nafaqat poytaxtimiz, balki barcha shahar-qishloqlarimiz, olis va chekka tumanlarimiz, umuman, butun O'zbekistonimizning qiyofasi mutlaqo o'zgarayotgani nimadan darak beradi? Bularning barchasi xalqimiz belni mahkam

bog‘lab mehnat qilayotgani, o‘z kelajagini o‘z qo‘li bilan bunyod etish uchun tinimsiz intilayotganidan dalolat beradi.

Bunday xalqni, o‘ziga, o‘z kuchiga ishonib, qat’iyat bilan oldinga borayotgan, ertangi kunni o‘ziga yaqqol tasavvur etib, yangi-yangi marralarni egallash sari katta azmu shijoat bilan harakat qilayotgan xalqni hech qachon o‘z yo‘lidan qaytarib bo‘lmaydi. Bunday xalq o‘z maqsad-muddaolariga albatta yetadi.

Shu ma’noda, biz erishgan, qo‘lga kiritgan barcha marralar negizida hamma ishlarimizning og‘ir yukini, mas’uliyatini yelkasiga olib, ulkan yutuq va marralarimizning sababchisi bo‘lgan, ijodkori va bunyodkori bo‘lgan fidoyi insonlarning mehnati, bag‘rikeng xalqimizning yaratuvchilik salohiyati mujassam, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Mana, bu yilni yurtimizda «Mustahkam oila yili» deb e’lon qildik. Buning zahirida ham hayotimizda inson manfaatlari ustuvorligi, har bir insonning o‘z xalqi, oila-

si, Vatani taqdiriga daxldor bo‘lib yashashi kabi ezgu maqsadlar mujassam.

Barchamizga ayon — jamiyatda ma’naviyatning o‘rni beqiyosdir. Chunki inson hayotga, yon-atrofida ro‘y berayotgan voqealarga befarq bo‘la olmaydi. U faqat pul yoki boylik uchun yashamaydi, odamlarning tashvishi, dardiga sherik bo‘ladi, ular uchun kuyunadi. Biz yoshlarimizni aynan mana shunday ruhda tarbiyalashimiz darkor. Nega deganda, ma’naviyat, odob-axloq, ibratli qadriyatlar, oliyjanob fazilatlar birinchi navbatda oilada, jamiyatda shakllanadi. Onaning qalb tuyg‘ulari, ma’naviyati farzandiga avvalo uning oq suti orqali o‘tadi. Bularning barchasi muqaddas kitoblarda bayon etilgan. Shu bois biz «Mustahkam oila yili» munosabati bilan qabul qilingan Davlat dasturini amalga oshirish uchun katta kuch va imkoniyatlarni safarbar etmoqdamiz. Maqsad — oilalar mustahkam bo‘lsin, yoshlar katta avlod boshlagan ishlarni munosib davom ettirsin. Toki hayotda o‘z yo‘lini izlayotgan farzandlarimiz o‘z

ongi, o'z aqli bilan mana shu g'oyalarning tarafdoriga, eng asosiysi, ularning himoyachisiga aylansin.

Xalqimiz o'rtasida yurtimizda, yon-atrofda bo'layotgan barcha o'zgarishlarga daxldorlik hissi, ijtimoiy va fuqarolik faolligi o'sib boryapti. Men televizorda yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlarni ko'rsam, voqea-ning o'zini ko'rishga unchalik e'tibor bermayman, ko'proq odamlarning ko'ziga qarayman, ayniqsa, yoshlarning ko'ziga, ularning aytgan so'zlariga diqqat qilaman. Nega deganda, men kechagi hayotni juda chuqur o'rgangan, sezgan, zamon gardishi, tarix taqozosi bilan ko'p-ko'p voqealarni boshimdan kechirgan odamman. O'sha davrdagi faoliyatim misolida har tomonlama asosli xulosalar chiqara oladigan odamman.

Demoqchimanki, shiddatli, keskin davrda yashab, sobiq sovet tuzumida ko'p narsani anglab yetganman. Moskvada, eng yuqori markaziy idoralarda men kirmagan kabinet qolmagan. SSSRning eng katta

lavozimdagi rahbari Gorbachyovdan tortib, undan keyingi pog'onadagi boshqa rahbarlardan, to Ittifoq vazirlarigacha — hammasi bilan yuzma-yuz bo'lib, to'qnash kelganman. Bundan tashqari, dunyodagi ko'plab xorijiy davlatlarda bo'lganman. Shunday ekan, solishtirishga, qiyoslashga, taqqoslashga menda to'liq asoslar bor.

Men umrim davomida nimani boshimdan kechirgan bo'lsam, barchasini xalqim bilan birga kechirganman. «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobi sahifalarida buning tasdig'ini ko'rish mumkin. Bu kitobda 1989-yilning iyun oyidan 1992-yilning yanvar oyigacha bo'lgan davrdagi — ikki yil mobaynidagi voqealar tarixi berilgan. Bu kitobni o'qigan odam biz mustaqillik arafasida, yurtimiz jar yoqasida turgan, kichik bir uchqun chiqsa, butun respublikamiz o't-olov ichida qolib ketadigan o'ta xatarli bir vaziyatda qanday tahlikali voqealar, qaltis sinov va mashaqqatlarni boshimizdan kechirganimiz haqida ko'p narsani tushunib, kerakli xulosa

chiqarib oladi. Bu kitob bilan tanishgan inson xohlaydimi-yo‘qmi, mustaqillik ham, bugungi erkin va ozod hayot ham osmondan tushmagan ekan, degan fikrga, shunday haqqoniy xulosaga keladi.

Men bahor faslida, yoz faslida yurtimizning musaffo, tiniq va beg‘ubor osmoniga qarab, rohat qilgandek bo‘laman.

«Musaffo osmon» degan iboraning o‘zida juda katta ma’no bor. Men har safar 30 millionlik xalqimiz men bilan birga bu moviy osmonni ko‘rib bahra olyapti, deb mamnun bo‘laman. Odam hatto boshiga qandaydir musibat tushsa ham, qandaydir qiyinchilikka duch kelsa ham, shu keng, yorug‘ osmonga qarab, ko‘ngli ham, yuzi ham yorishib, xudoga shukrona qiladi.

Aytmoqchimanki, bugun bizning boshimizda mana shunday musaffo osmon bor. Bunday tinch, har bir kuni osoyishta mehnat bilan o‘tayotgan hayot bizga Yaratganimiz tomonidan bebaho ne‘mat qilib berilgan va buning uchun cheksiz shukronalar aytsak, arziydi.

Modomiki, shunday ekan, bu hayotga shukronalik tuyg‘usi, kechagi tariximizdan to‘g‘ri xulosa chiqarish, Vatan taqdiriga, xalqimiz tarixiga daxldor bo‘lish, bugun hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizning ong-u shuuriga o‘tganlar xotirasi aziz va muqaddas ekanini singdirish va eng muhimi, ajdodlardan ibrat olib yashash ruhida ularni voyaga yetkazish g‘oyat muhim ahamiyatga egadir.


Mana shu muqaddas tuproq — meniki, bu yerda ota-bobolarimning xoki poylari yotibdi, agar shu musaffo osmon, mana shu yorug‘ hayot uchun, ona Vatanim uchun men kurashmasam, men jonimni fido qilmasam, kim kurashadi, deb yashaydigan o‘g‘il-qizlarimni ko‘rsam, ular haqida eshitsam, menda xuddiki qanot paydo bo‘lgandek bo‘ladi. Nega deganda, ayni shu xususiyat va fazilatlarni men inson omili deb bilaman.

Agarki, inson shunday fikrlasa, shunday e‘tiqod bilan yashasa, aytinglar, bunday odamni sindirib, yo‘lidan qaytarib bo‘la-

dimi? Meni eshitganlar o'ziga shu savolni berib, yana o'ziga o'zi javob bersin. O'ylaymanki, barchasining javobi ijobiy bo'ladi. Bunday xalqni to'xtatib bo'lmaydi.

Bu yil istiqlolimizning 21 yilligini nishonlaymiz. Agarki shu vaqt ichida mamlatimizning bugungi kuni va kelajagi uchun amalga oshirgan eng muhim ishlarimiz haqida so'rasha, men avvalo tarixan shu qisqa davrda biz yoshlarimizning zamonaviy bilim olishi, tarbiya topishi, boshqacha aytganda, inson omilini rivojlantirish, har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida qilgan ulkan ishlarimizni aytgan bo'lardim.

Unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz ota-bobolarimizning munosib vorislari bo'lib voyaga yetishi, XXI asr talablariga har tomonlama javob beradigan insonlar bo'lib kamol topishi uchun biz bundan buyon ham kuch-g'ayratimizni ayamaymiz. Chunki, takror aytaman, ertangi kun — yoshlar qo'lida. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga yanada ko'proq ishonch bildirish lozim. Bu



masalaga biryoqlama qaramaslik kerak. Davlatimiz, jamiyatimizning bu boradagi vazifasi — kelajak avlodni hayotda har bir odam, har bir yosh yigit-qiz duch keldigan murakkab sinovlarga har tomonlama tayyorlashdan iborat.

Ishonchim komilki, yoshlarimiz ham, ularning ota-onalari ham kelajakda hali ko'p ishlarni amalga oshirish lozimligini, har tomonlama yetuk avlod bo'lib voyaga yetish uchun bugun hayotda kerak bo'ladigan ko'plab bilim va tajribalarni o'rganish zarurligini, bu yo'lda tinimsiz o'qish, o'rganish va izlanish darkorligini yaxshi anglaydilar.

Yana takrorlayman: biz o'z oldimizga qo'ygan buyuk va ezgu maqsadlarga erishish, dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib o'rin egallash haqida gapirar ekanmiz, bu yo'lda bizning tayan-chimiz va suyanchimiz bo'lgan yoshlarni milliy g'oyamiz ruhida, hech kimdan kam bo'lmaydigan avlod etib tarbiyalash tobora ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda yoshlarimiz hal qiluvchi kuch bo'lib hayotga dadil qadam qo'ymoqda. Men bu yoshlarga o'zimga ishongandek ishonaman. Bunday fikr, bunday qarash 1991-yildayoq mening qalbim, ong-u shuurimga muhrlanib, faoliyatimning asosiy mezoniga aylanib qolgan, desam, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

O'z hayoti, o'z taqdirini mana shu ozod Vatan, dunyoda yakka-yu yagona bo'lgan ona O'zbekistonimiz bilan chambarchas bog'lab, kelajak sari katta ishonch bilan intilayotgan bolalar bu — mening bolalarim. Bunday azm-u shijoatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega, dunyo maydonida o'z tengdoshlari bilan bellashishga qodir bo'lgan yoshlarni himoya qilishga, ularga madad berishga, ularga har qanday amaliy sharoit, imkoniyat va zamin tug'dirib berishga men hamisha tayyorman. Chunki men davlat rahbari, Prezident sifatida yoshlarning taqdiri, xalqimiz va mamlakatimiz kelajagi uchun javobgarman.

masalaga biryoqlama qaramaslik kerak. Davlatimiz, jamiyatimizning bu boradagi vazifasi — kelajak avlodni hayotda har bir odam, har bir yosh yigit-qiz duch keldigan murakkab sinovlarga har tomonlama tayyorlashdan iborat.

Ishonchim komilki, yoshlarimiz ham, ularning ota-onalari ham kelajakda hali ko‘p ishlarni amalga oshirish lozimligini, har tomonlama yetuk avlod bo‘lib voyaga yetish uchun bugun hayotda kerak bo‘ladigan ko‘plab bilim va tajribalarni o‘rganish zarurligini, bu yo‘lda tinimsiz o‘qish, o‘rganish va izlanish darkorligini yaxshi anglaydilar.

Yana takrorlayman: biz o‘z oldimizga qo‘ygan buyuk va ezgu maqsadlarga erishish, dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallash haqida gapirar ekanmiz, bu yo‘lda bizning tayan-chimiz va suyanchimiz bo‘lgan yoshlarni milliy g‘oyamiz ruhida, hech kimdan kam bo‘lmaydigan avlod etib tarbiyalash tobora ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda yoshlarimiz hal qiluvchi kuch bo'lib hayotga dadil qadam qo'yimoqda. Men bu yoshlarga o'zimga ishongandek ishonaman. Bunday fikr, bunday qarash 1991-yildayoq mening qalbim, ong-u shuurimga muhrlanib, faoliyatimning asosiy mezoniga aylanib qolgan, desam, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

O'z hayoti, o'z taqdirini mana shu ozod Vatan, dunyoda yakka-yu yagona bo'lgan ona O'zbekistonimiz bilan chambarchas bog'lab, kelajak sari katta ishonch bilan intilayotgan bolalar bu — mening bolalarim. Bunday azm-u shijoatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega, dunyo maydonida o'z tengdoshlari bilan bellashishga qodir bo'lgan yoshlarni himoya qilishga, ularga madad berishga, ularga har qanday amaliy sharoit, imkoniyat va zamin tug'dirib berishga men hamisha tayyorman. Chunki men davlat rahbari, Prezident sifatida yoshlarning taqdiri, xalqimiz va mamlakatimiz kelajagi uchun javobgarman.

Albatta, bugungi tinch-osoyishta hayotning qadriga yetib, uning posboni bo'lgan milliy armiyamizning yanada kuchli va qudratli, yanada zamonaviy bo'lishi uchun, Qurolli Kuchlarimiz xalqimizning chinakam g'urur-iftixoriga aylanishi uchun bu borada boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirishimiz shart. Bu masalaga mana shu hayotni har tomonlama himoyalash, ertangi kunga juda katta ishonchning mustahkam kafolati sifatida qarashimiz lozim. Buni bugun zamonning o'zi talab etmoqda.

Nega deganda, biz bugun dunyoga real ko'z bilan qarab, qandaydir xavf-xatarlarga ham tayyor bo'lib turishimiz kerak. Biz shu kunga qadar nimaga, qanday yutuqlarga erishgan bo'lsak, faqat va faqat o'zimizning kuchimiz hisobidan erishdik. Hech kim chetdan kelib bizga hech qanday ko'mak yoki amaliy yordam bergani yo'q. Shunday bo'lgan, o'ylaymanki, kelajakda ham shunday bo'ladi. Eng muhimi, otabobolarimiz ming yillar davomida orzu qilib

kelgan mana shunday erkin, ozod, baxtli hayot kechirish — ya'ni, eng taraqqiy topgan davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz hayotini ayni shu mamlakatlar darajasiga ko'tarish, 1991-yildayoq o'z oldimizga qo'ygan vazifa — buyuk davlat qurish — bizning asosiy maqsadimizdir.

Men bu gaplarni ayni shu Xotira va qadrlash kunida, Xotira maydoni deb nom olgan ushbu tabarruk maskanda aytayotganim bejiz emas. Chunki bu maydonga kelgan odam ham tarix, ham bugungi kun, ham kelajak haqida o'ylashi, o'zi uchun ibratli xulosalar chiqarishi tabiiydir.

Men fikrlarimni yakunlab aytmoqchiman: albatta, ana shu ezgu maqsad uchun, ana shunday hayot barpo etish uchun otlangan xalqimizga Yaratganimizning o'zi madadkor bo'lsin!

Mening istagim, tilagim shuki, O'zbekistonda yashayotgan har qaysi xonadon, har qaysi oila baxtli bo'lsin!

Men shu oliy maqsad uchun bor kuchg'ayratimni sarflab, xalqimga xizmat

qilishga, kerak bo'lsa, butun borlig'imni berishga tayyorman.

Mana, barchamiz ko'ryapmiz, shu maqsad yo'lida qo'yayotgan amaliy qadamlarimiz o'z natijasini, hosilini beryapti — bugungi hayotimiz kechagi kunimizdan tobora obod, mazmunli va farovon bo'lib boryapti. Yurtimiz har tomonlama yuksalib boryapti. Ertangi kunimiz yanada yorug' va farovon bo'lsin, degan niyat bilan men barchangizni shu maqsad yo'lida yanada faol bo'lishga da'vat etmoqchiman.

*Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan
ommaviy axborot vositalari uchun
berilgan intervyu,
2012-yil 9-may
Toshkent*

Ijtimoiy-siyosiy nashr

Islom Abdugʻaniyevich Karimov

**TARIXIY XOTIRA
VA INSON OMILI — BUYUK
KELAJAGIMIZNING
GARVIDIR**

Nashr uchun masʼul *A. Saʼdullayev*

Badiiy muharrir *H. Qutluqov*

Texnik muharrir *T. Xaritonova*

Musahhih *G. Azizova*

Kompyuterda tayyorlovchi *L. Abkerimova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.09

Bosishga ruxsat etildi 22.05.2012.

Qogʻoz formati 70×90^{1/32}.

Tayms garniturada ofset usulida bosildi.

Shartli b.t. 1,46. Nashr t. 1,22. Tiraji 9000.

Buyurtma № 12-201.

Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligining

«Oʻzbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100129, Toshkent, Navoiy koʻchasi, 30.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz

www.iptd-uzbekistan.uz

Karimov, Islom.

K 23 Tarixiy xotira va inson omili — buyuk
kelajagimizning garovidir/I. Karimov.—
Toshkent: O‘zbekiston, 2012.—40 b.
ISBN 978-9943-01-817-4

УДК: 323(575.1)+94(575.1)

ББК: 66.3(50‘)+66.3(50‘)